
“2022 yilda doimiy va vaqtincha ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturi”ga muvofiq yanvar-iyun oylarida Farg‘ona shahrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hosobot

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 4-fevraldagi “Hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish ishlari samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida”gi SQ-478-sonli qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Farg‘ona shaharda “2022 yilda doimiy va vaqtincha ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturi”ga muvofiq yanvar-iyun oylarida jami 15 056 ta ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan bo‘lib, amalda 16 530 ta (yanvar-may oylari rejasiga nisbatan 109,8 %, yillik prognozga nisbatan 50,0 %) yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jumladan:

Iqtisodiyot yo‘nalishida - reja 7331 ta, amalda 7747 ta (105,7%);

savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida - reja 3812 ta amalda 4159 ta (109,1%)

Tadbirkorlikni rivojlantirish va bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish hisobiga - reja 3519 ta amalda 3588 ta (102,0%); Shundan,

- bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish hisobiga - reja 580 ta amalda 585 ta (100,9%);

- o‘zini o‘zi band qilish hisobiga - reja 2017 ta amalda 2035 ta (100,9%);

- hunarmandchilikni rivojlantirish orqali - reja 152 ta amalda 194 ta (127,6%);

- yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga - reja 770 ta amalda 774 ta (100,5%);

-Qurilish yo‘nalishida - qurilish ob‘ektlarida va qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarida - reja 975 ta amalda 1184 ta (121,4%);

-Investitsiya yo‘nalishida - tarmoq va hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga - reja 469 ta amalda 969 ta (206,6%);

-Turizm va madaniyat yo‘nalishida - reja 442 ta amalda 663 ta (143,1%);

-Qishloq va suv xo‘jaligi sohasida - reja 5839 ta amalda 5997 ta (102,7%)

- paxta va g‘alladan qisqartirilgan 4,8 ming gektar yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi uchun ajratish hisobiga - reja 896 ta amalda 773 ta (86,2%);

- pillachilik yo‘nalishida - reja 2289 ta amalda 2312 ta (101,0%);

- dehqon xo‘jaliklari va tomorqani rivojlantirishda - reja 1089 ta amalda 1194 ta (109,7%);

- qishloq xo‘jaligi ishlarda - reja 1565 ta amalda 1718 ta (109,8%).

D.Azimjonov,

Farg‘ona shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori o‘rinbosari.

2022-07-22 15:05:40